

O‘SMIRLARDA HISSIY-IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Yaxyoyeva Gulhayo

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti

2-bosqich magistri

Annotatsiya: Maqolada o‘smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirish muammolari va ularning kompleks yechimlari aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: o‘smir, shaxs, “men” lik, krizis davr, jamiyat.

Bugungi kunda o‘smir shaxsini munosib shakllantirish, uni zamon talablari darajasidagi barkamol avlod vakili sifatida tayyorlash, shuningdek, o‘smirlarni keyingi yosh davri – o‘spirinlikka tayyorlash jarayonida iroda sifatlarini o‘smirlar ongiga singdirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun” talablariga binoan o‘smir shaxsida irodaviy sifatlarni shakllantirish muammolarini o‘rganish jarayonida jahon psixologlari tomonidan yaratilgan ilmiy psixologik adabiyotlarni o‘rganish, o‘smir shaxsi va uning psixologik xususiyatlarini yangi diagnostik metodlar orqali tahlil etish zarurati mavjudligi mavzuning dolzarbligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Psixologiya fani keskin rivojlanib borayotgan hozirgi davrda psixologiya fani ravnaqiga hissa qo‘shib kelayotgan mamlakatimiz va jahon olimlarining faoliyatini o‘rganish, uni yoshlarga yetkazib berish oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Har bir o‘smir shaxsi o‘ziga xos ruhiy kenglik bo‘lib, unda o‘quvchining ichki “men”ligi namoyon bo‘ladi. Bu menlik uning tashqi menligi bilan birgalikda shaxsning o‘zligini anglash imkoniyatlarini yaratadi. Natijada, o‘quvchi o‘qib o‘rganish orqali o‘zining atrofdagi borliqni, mavjud narsalarni, jamiyat tarixi va milliy madaniyatni, insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy, ma’naviy boyliklarni chuqur anglab yetadi. Bu esa uning milliy o‘zligini anglashida o‘z aksini topadi. O‘smir shaxsining hissiy-irodaviy sifatlarini o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonida o‘ziga xos psixologik muammodir.

Bu muammo mazmunida quyidagilar nazarda tutiladi:

har bir o‘smir shaxsi o‘ziga xos biologik va fiziologik jihatdan ma’lum mexanizmlarga ega. Bu mexanizmlar o‘quvchi shaxsidagi psixologik qonuniyatlar bilan bog‘liq holda ma’lum individual xususiyatlarning kelib chiqishiga zamin hozirlaydi;

o‘smir shaxsida hissiy-irodaviy sifatlarning shakllanishida uning atrofidagi ijtimoiy, ma’naviy, iqtisodiy, ma’rifiy omillarda qanchalik sog‘lom muhit yaratilsa, ijodiy ta’sir kuchiga ega bo‘ladi;

o'smir shaxsida irodaviy sifatlarning shakllanishida atrofdagi tengdoshlari, shaxs va shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi o'zaro, doimiy munosabatlarni o'zida mujassamlashtirgan muloqot jarayonlari, unda o'quvchining tutgan o'rnini, obro' – e'tibori, qadr-qimmatini muhim o'rin tutadi.

Qayd etib o'tilgan bu omillar bir-biri bilan bog'liq holda o'smir o'quvchining bir butun holdagi shaxsida mujassamlashadi. Uni o'rganishda o'qituvchi shaxsi, kamoloti, pedagogik ish uslubi, kasbiy mahorati, bilimi psixologik yondashuvi muhim o'rin tutadi.

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bulgan davrni tashkil etadi. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katga xam emas» - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muxim xarakterini bildiradi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ruy bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik xamda psixologik o'zgarishlardir, Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va usishi, xujayra va organizm tuzilmalarining kaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofez bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm tukimalarining usishi va muxim ichki sekretsiya bezlarining (kalkonsimon bez, buyrak usishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada buy usishi tezlashadi, jinsiy balogatga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bulishi) amalga oshadi.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoklari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu xolatni oddiy kuzatish yo'li bilan xam osongina ko'rish mumkin. O'smirlik yoshiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar xayotida xali o'z o'rnini topa olmagan xolatda bo'ladi, o'smirlik davri «o'tish davri», «krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o'smirlarning hatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash xollari xam kuzatiladi. O'z davrida L.S.Vigotskiy bunday xolatni «psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan. O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan aloxida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'prok bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushkoklik kabi xususiyatlar xos.

Ijtimoiy-ruhiy ehtiyojga asoslangan holda mamlakatimiz yoshlarini komil inson qilib kamol toptirish uchun ularni o‘zini-o‘zi uddalashga o‘rgatishdan ish boshlamoq zarur. O‘quvchining o‘z faoliyatini va xulq-atvorini shaxsiy xoxish-irodasiga bo‘ysundirishni ro‘yobga chiqarish mustaqil fikrlashni barqarorlashtiradi, ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishga puxta zamin hozirlaydi. Har xil xususiyatli qiyinchiliklarning oldida matonat, sabr-toqat tuyg‘ularini namoyish etishga chorlaydi. Buning natijasida mustahkam irodali, prinsipial, qat’iyatli, uzoqni ko‘zlovchi, teran fikrlovchi, aql-zakovatli, vatan tuyg‘usi bilan yonuvchi haqiqiy milliy vatanparvar yoshlar ijtimoiy hayotda, ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Insonga tug‘ilishdan beriladigan tabiiy mayllardan, aqliy va axloqiy imkoniyatlardan unumli foydalanmasdan turib, yuksak ma’naviyatli, farosatli, ijodiy izlanuvchan shaxslarni voyaga yetkazib bo‘lmaydi. Xuddi shu boisdan, insonning bolaligidan tortib to ijtimoiylashuviga qadar davr oralig‘ida o‘zini-o‘zi boshqarish usullari, vositalari bilan tanishtirish, qat’iyatlilikni vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida – 4947. O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar to‘plamining 70-moddasi.
 2. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 29-dekabrda “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-son qarori.
 3. Barotov Sh.R. va boshqalar, Eksperimental psixologiya. - Toshkent: Nauka, 2008 yil.
 4. Barotov Sh.R. Psixologik xizmatni tayyorlash: nazariya va amaliyot. – Buxoro: Durdona, 2017. – 172 b.
 5. Gamezo M.V., Domashenko I.A. Pedagogika institutlari talabalari uchun psixologiya atlası darsligi, - M.: Ta’lim, 1986. - 272 b.
 6. Abramova G. S. Amaliy psixologiya. - M.: 2000 yil.
 7. Nishonova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M. Psixologik xizmat. - T.: Ilmiy-texnika markazi nashriyoti, 2014 yil.
 8. Gaziev E. Umumiy psixologiya. Darslik.Tosh.-Universitet-2002.141-163 bet.
 9. Masharipov Yu. Umumiy va sport psixologiyasi (O‘quv qo‘llanma). - Samarqand: SamDU nashri, 2011, 169 bet.
 10. Baratov Sh. Umumiy psixologiya. Darslik. Buxoro-2022.-189-210 bet.
 11. Баратов Ш.Р. Методология обучения прикладных психологов: психологические основы социального интеллекта в системе образования/ Вестник интегративной психологии. – Ярославль: 2013, – С. 48-49.
 12. **Xarakter aksentuatsiyasi tushunchasining ijtimoiy-psixologik tahlili** EDUCATION Scientific journal Mart 2022.663 bet
 13. Ashurov R. Комплексный подход к изучению ценностных установок 24 выпуск 2022г 48-50 стр.
 14. **Yoshlarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari** EDUCATION Scientific journal Mart 2022.663 bet
 15. Xarakter aksentuatsiyasining o‘quvchilar orasidagi munosabatlarga ta’siri Eurasian Journal of Academic Research, 1(8), 14–16. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5673781>
- Интернет-ресурсы:
<http://www.koob.ru>
<http://www.psystudy.ru/>
<http://www.psychology-online.net>
<http://www.psychol-ok.ru/library/html>